

DUNYO TILLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

X. Haydarov ¹
(Ilmiy rahbar: Asadova Ch.)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada dunyo tillarining paydo bo'lish tarixi, rivojlanish taraqqiyoti, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning fanga kiritilishi, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, tilning paydo bo'lishi borasidagi olimlar tomonidan berilgan farazlar haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, etnografiya, tarix, antropologiya, psixologiya, geografiya, fizika, A. De Sossyur, Kopengagen strukturalizmi, Yunoniston, Hinduston, analogistlar, anomalistlar, tovushga taqlid farazi, undovlar farazi, mehnat chaqirig'i farazi, ijtimoiy kelishuv farazi

doi: <https://doi.org/10.2024/ycx3ka64>

Tilshunoslik – til haqidagi mustqil va aniq fan bo'lib tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy tasosda tahlil qiladi. Tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Til va jamiyat taraqqiyoti bog'liqligi tufayli tilni sotsiologlar ham tadqiq etadilar.

Tilshunoslar ham tarix, etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika kabi fanlarga oid materiallar va xulosalardan foydalanadilar. Dunyoda tilshunoslik borasidagi ilk qadamlar odamlar o'rtasidagi muloqotga bo'lgan zaruriyat sezilganidan e'tiboran qo'yilgan desak xatò bo'lmaydi.

Tilshunoslik fani eng uzoq tarixga ega bo'lgan fanlar sirasiga kiradi. U eramizdan bir necha yuz yillar avval qadimgi Hinduston va qadimgi Yunoniston (Gretsiya) da taraqqiy etib boshlagan. Qadimgi Yunoniston olim va faylasuflari o'rtasida so'z va tushuncha munosabati masalalari bir qator bahs – munozaralarga sabab bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq olib borilgan tahlillar, kuzatishlar pirovardida tilning so'z boyligi so'zlarning paydo bo'lishi haqidagi dastlabki nazariy fikrlarga asos solindi. XIX asrning birinchi yarimida tilshunoslik sohasida juda katta yutuqlarga erishildi. Xususan, bu davrda tilshunoslikda qiyosiy – tarixiy metod shakllandi va unga hamohang tarzda til haqidagi fan ham qiyosiy – tarixiy tilshunoslik fani deb yuritila boshlandi. Bu davrda Yevropa tillarining Sanskrit (qadimgi hind) tili bilan uzviy bog'lanishini sezgan holda bu tillarning o'zaro aloqadorlik bog'liqlik taraflari jiddiy o'rganila boshlandi. Ayniqsa, tillarni qiyosiy-tarixiy aspektida tadqiq etish borasida nemis olimlari Frans Bopp (1791-1867), Yakob Grimm (1785-1863), daniyalik olim Rasmus Rask (1787-1832), rus olimi Aleksandr Vostokov (1781-1864), chex olimi Dobrovskiy (1753-1829) kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. Qiziqarli tarafi shuki, mazkur olimlar bir-birlariga bog'liq bo'lmagan

¹ Xurshed Haydarov, SamDCHTI, ikkinchi bosqich talabasi

holatda va bir davrning o`zida tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o`rganish metodi g`oyasi va tamoyillarini ishlab chiqish borasida hamfikir bo`ldilar. [2:5]

Tilning tabiat,i mohiyatikishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o`zaro munosabati, uning mexanizmlari, prinsiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o`rganishning, tilni har tarafлама tadqiq qilishni talab qiladi. XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamon tilshunoslik faning asoschisi mashhur shvetsariyalik olim F.de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta`sirida tilshunoslik faning predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, birinchilardan bo`lib tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi. Boshqa bir qator olimlar (A. Shleyxer, G. Paul, M. Myuller), tilshunoslik maktablari (Yosh grammatikachilar maktabi Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o`z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. [4:6]

Tilning paydo bo`lish masaalasi – til qachon va qayerda paydo bo`lish, dastlab nechta til bo`lgan degan savolga haligacha ilmiy asos berilgani yo`q. Ba`zi olimlarning aytishicha til besh yuz ming yil avval paydo bo`lgan.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg`in bahs olib borganlar. Demokrit va boshqalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog`lanish yo`q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan , demak, til inson tomonidan yaratilgan degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlar anomalistlardeb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar narsa bilan uning nomi o`rtasida muayyan bog`lanish bor. Bu bog`lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog`lanish ilohiy kuch tomonidan o`rnatilgan degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim analogistlar deb nom olgan. [4:6]

Kishilar ibtidoiy jamiyatning dastlabki davrlarida to`da-to`da, ya`ni urug` bo`lib yashaganlar. Bir necha qardosh urug`lar qabilani tashkil qilgan.bunday uyushmalarning har birini o`z tili va aloqa vositasi bo`lgan. Vaqt o`tishi bilan qabila a`zolari ko`payib, kengroq hududga tarqala boshlaydi. Boshqa joyga ko`chib ketgan qarindosh qabilalar ma`lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda bir tilning turli shevalarida so`zlashuvchi qabilalarning uyushmasiga-qabila ittifoqlariga birlashadi. Qabila ittifoqlarining umumiy tili bo`lib, ayrim qabila tillari qabila ittifoqi tiliga nisbatan sheva holatini egallaydi. Qardosh qabilalar ittifoqi vaqti kelib xalqni tashkil qiladi. Kishilik jamiyati uyushmasining asosiy belgilari: umumiy til, umumiy hudud madaniyati va ma`naviy tahlitning umumiyligidir.

Til taraqqiyotida qo`shni xalqlar o`rtasidagi turli munosabatlar, savdo-sotiq, madaniy aloqalar, urushlar o`z ta`sirini qoldiradi. Bunday hodisalar ba`zi tillarda ko`proq, ba`zilarida esa kamroq aks etadi. Masalan, hozirgi zamon ingliz tili lug`at boyligining faqat 30% ga yaqin sof ingliz tiliga oid, qolganlari roman va sharq tillaridan kirgan so`zlardir. Tillarning bunday munosabatlari tillar hamkorligi deyiladi. Tillar hamkorligida tillarning chatishuviga odatda katta ahamiyat beriladi. Ba`zi olimlarning fikricha, har qanday hamkorlik ham tillar chatishuviga kiravermaydi. Masalan, bir tildan ikkinchi tilga so`z o`zlashtirilishi tillar chatishuviga kirmaydi, chunki o`zlashtirilgan so`zlar tilning grammatik ko`rinishiga o`z ta`sirini

o`tkazmaydi: arab tilidan o`zbek tiliga o`zlashtirilgan so`zlar bunga yaxshi misol bo`la oladi. [1:15]

Endi quyida biz tillarning paydo bo`lishi haqidagi farazlarni ko`rib chiqamiz.

I. Tovushga taqlid farazi. Bunga ko`ra ibtidoiy odamlarning turli tovushlarga hayvon va qushlar ovozigina, tabiat hodisalariga taqlid qilishi jarayonida so`z yasalgan (kukushka, gavkat, miyov). Bu faraz noto`g`ri albatta, chunki bu til va tafakkur birligiga ziddir.

II. Undovlar farazi. Bu qadimiy faraz bo`lib, uning asosida odamlar hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o`rganib, ular orqali o`zlarining ichki kechinmalari, g`am-alamlarini ifodalashgan (oh, uch, uh kabi). Bu faraz ham tilning jamiyat bilan bog`liqligini inkor etadi.

III. Mehnat chaqirig`i farazi. Bu farazga kora, odamlar jamoa bo`lib mehnat qilayotganlarida mehnatni tashkil etishda foydalanilgan tovushlar asosida til paydo bo`lgan, deb hisoblanadi. Hozirgi zamon olimlarining dalolat berishicha tilning paydo bo`lishida mehnat chaqiriqlarining hech qanday ahamiyati yo`q.

IV. Ijtimoiy kelishuv farazi. Bu farazning asosiy kamchiligi, tilning paydo bo`lishini odamni paydo bo`lishi bilan bog`lamasligidir. Lekin bu faraz ham tilning paydo bo`lishini tushuntirishga o`z hissasini qo`shgan.

Tilning paydo bo`lishini dialektik materializm quyidagicha yoritib beradi. Maymunlar odamga aylanar ekan, dasrtavval qo`lning harakatlari o`zgara boshlaydi, mehnat qila boshlaydi, oyoqda yurib qo`lga tayanmay qo`yadilar. Mehnat rivojlanib, odamlar yanada bir-birlariga jipslashib bir-birlari bilan aloqa qilish zaruriyati paydo bo`ladi. Til-mehnat bilan birga taraqqiy etgan. Til va mehnat asta-sekin miyani rivojlantirib tafakkurni yuzaga keltiradi. Mehnat, til va ong orasidagi munosabat hozirgacha davom etib kelmoqda. Odamni ham tilni ham kollektiv, ijtimoiy mehnat yaratdi. Til vaqt o`tishi bilan o`zgarib, taraqqiy eta boshladi.

Dunyodagi barcha tillarda asosiy va ikkinchi darajali yaruslar (qatlamlar) bor. Tilni bunday tarkibiy qatlamlarga ajratish barchaga maktab darsliklaridan ma`lum. Asosiy yaruslar: fonologiya (fonetika), leksika va grammatikani tashkil etuvchi - morfologiya va sintaksidir. Ikkinchi darajali yaruslarga stilistika va boshqalarni kiritish mumkin. Asosiy va ikkinchi darajali yaruslar orasida katta farq yotadi: asosiy yaruslar til va nutqda o`z birliklariga ega, ikkinchi darajali yaruslar esa o`z birliklariga ega bo`lmay, o`z maqsadlariga erishish yo`lida asosiy yarus birliklaridan foydalanadilar. [1:19]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dunyo tillari tarixi, paydo bo`lishi bir necha yuz ming yillarni tashkil etadi, shu sababdan dunyo tillarining o`ziga xos tarixi va rivojlanish sistemasi bor shunga ko`ra bu haqidagi ma`lumotlar juda ham ko`p. Biz sizlarga qisqacha qilib tillarning tarixi, davrlar mobaynida rivojlanib borishi, tilshunos olimlar tomonidan aytilgan farazlar, dastlab qaysi hududlarda tilshunoslik haqidagi bilimlar ilgari surilgan va tilning paydo bo`lgani, rivojlanish bosqichlarini aytilgan o`tishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- [1]. Irisqulov. M. T "Tilshunoslikka kirish" Toshkent: fan 2009

- [2]. I.Yo`ldoshev, S.Muhamedova, Z. Xolmanova, R. Majidova, Sh. Sulstonova“ Mutaxassislikka kirish“ Toshkent: fan. 2018
- [3]. I. Yo`ldashev, O`.Sharipova “ Tilshunoslik asoslari “ Toshkent: fan.2007
- [4]. Xolmonova.Z.T “ Tilshunoslikka kirish“ Toshkent: fan. 2016.
- [5]. C Asadova, S Ulug'bekova, K Shamsiyeva - Conference Proceedings: *Fostering Your Research ...*, 2024
- [6]. Асадова, Ч. (2022). Хорижий tillarni o'rganishda yosh davriga xos xususiyatlar. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 225–226. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem/article/view/12933>